

**HADISGA ASOSLANGAN AXLOQIY MEROS PERSPEKTIVASIDA TARBIYA
FANI ORQALI AXLOQIY-KOMMUNIKATIV MADANIYATNI
SHAKLLANTIRISH: SALOMLASHISH ODOBI VA PEDAGOGIK
INTEGRATSIYA**

Axmedov Boburjon Vasikovich

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Boshlang‘ich ta’lim
pedagogikasi kafedrası o‘qituvchisi.*

<https://orcid.org/0009-0000-5274-8916>

E-mail: boburjonahmedov993@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imom Buxoriy merosining “Sahihi Buxoriy” asaridagi salomlashish odobi va ijtimoiy axloqiy qadriyatlar tarbiyasi tarbiyaviy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlarining sharhlari asosida kichikning kattaga salom berishi va kattalarga hurmat ko‘rsatish axloqiy-kommunikativ madaniyatning shakllanishidagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Tadqiqotda salomlashish odobining pedagogik ahamiyati, ijtimoiy moslashuv va muloqot madaniyatini rivojlantirishdagi roli o‘rganiladi. Maqola tarbiya fanida hadisiiy axloqiy merosdan foydalangan holda bolalarda hurmat, kamtarlik va ehtirom tuyg‘ularini shakllantirishning metodik asoslarini ta’kidlaydi.

Tayanch so‘zlar. Salomlashish odobi, axloqiy meros, tarbiya fani, pedagogik integratsiya, ijtimoiy axloq, muloqot madaniyati, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, “Sahihi Buxoriy”.

**ФОРМИРОВАНИЕ МОРАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ
ЧЕРЕЗ В ПРЕДМЕТУ О “ВОСПИТАНИЯ” В ПЕРСПЕКТИВЕ ЭТИЧЕСКОГО
НАСЛЕДИЯ, ОСНОВАННОГО НА ХАДИСАХ: ЭТИКЕТ ПРИВЕТСТВИЯ И
ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ИНТЕГРАЦИЯ**

Аннотация. В статье рассматривается воспитательное значение этикета приветствия и социальных моральных ценностей на основе наследия Имама Бухари, в частности книги “Сахих Бухари”. На основе комментариев шейха Мухаммада Содика Мухаммада Юсуфа анализируется роль приветствия младшими старших и проявления уважения к старшим в формировании морально-коммуникативной культуры. Исследуется педагогическое значение этикета приветствия, его влияние на социальную адаптацию и культуру общения. Статья подчеркивает методические

основы формирования уважения, скромности и почтения у детей через использование хадисного этического наследия в педагогике.

Ключевые слова. *Этикет приветствия, этическое наследие, наука воспитания, педагогическая интеграция, социальная мораль, культура общения, шейх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф, “Сахих Бухари”.*

SHAPING MORAL-COMMUNICATIVE CULTURE THROUGH THE “UPBRINGINGAL” SCIENCE IN THE PERSPECTIVE OF HADITH-BASED ETHICAL HERITAGE: ETIQUETTE OF GREETING AND PEDAGOGICAL INTEGRATION

Abstract. *This article explores the educational significance of greeting etiquette and social moral values based on the heritage of Imam Bukhari, particularly the “Sahih Bukhari”. Drawing on the commentaries of Shaykh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, it examines the role of greeting elders by juniors and showing respect to elders in shaping moral-communicative culture. The study highlights the pedagogical importance of greeting etiquette in promoting social adaptation and communication culture. The article emphasizes methodological approaches to cultivating respect, humility, and reverence among children through the application of Hadith-based ethical heritage in education.*

Keywords. *Greeting etiquette, ethical heritage, science of education, pedagogical integration, social morality, communication culture, Shaykh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, “Sahih Bukhari”.*

Introduction (Kirish). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish va davlat hamda jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish masalalari muhokama qilindi. Davlat rahbari ta’kidlashicha: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi - bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi - ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”, dedi Shavkat Mirziyoyev yig‘ilishda.¹⁶² Axloqiy va ijtimoiy muloqotning asosiy shakllaridan biri - salomlashish odobi bo‘lib, u insonlar orasidagi hurmat, kamtarlik va ijtimoiy moslashuvning muhim ko‘rsatkichi

¹⁶² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. 20.01.2021. <https://old.gov.uz/oz>

hisoblanadi. Buyuk muhaddis Imom Buxoriy (rahmatullohi alayh)ning bebaho merosi - “Sahihi Buxoriy” asarida insonlararo munosabatlarni tartibga soluvchi ko‘plab hadislar keltirilgan. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlari bu asarni “Oltin silsila” deb atab, undagi salomlashish va kattalarga hurmat ko‘rsatish odobi haqidagi hadislarini tarbiyaviy nuqtai nazardan sharhlashgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - tarbiya fanida hadisiiy axloqiiy meros asosida salomlashish odobi va ijtimoiy-axloqiiy qadriyatlarini shakllantirish pedagogik mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilishdir. Tadqiqot zamonaviy pedagogik yondashuvlar va muloqot madaniyati konsepsiyalari bilan uzviy uyg‘unlashadi.

Methods (Tadqiqot usullari). Ushbu maqolada sifatli tahlil usuli qo‘llanildi. Asosiy manbalar:

1. Imom Buxoriyning Sahihi Buxoriy asari;
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlarining sharhlari va asarlari;
3. Zamonaviy tarbiya fanining metodik va pedagogik tadqiqotlari.

Tahlil jarayonida hadisiiy matnlar pedagogik aspektda kontekstualizatsiya qilinib, ularning bolalarning axloqiiy-kommunikativ madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati o‘rganildi. Shuningdek, salomlashish odobi, hurmat va kamtarlikni rivojlantirish bo‘yicha pedagogik strategiyalar aniqlangan.

Results (Natijalar). Tahlil natijalariga ko‘ra:

- Hadisda zikr etilgan ““Kichik kattaga, o‘tayotgan o‘tirganga, ozchilik ko‘pchilikka salom beradi”¹⁶³ amaliy tarbiyaning asosiy ko‘rinishi bo‘lib, yoshlarda katta avlodga nisbatan hurmat, itoat va ehtirom tuyg‘ularini shakllantiradi.
- Salomlashish odobi ijtimoiy muloqotning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, nafaqat axloqiiy, balki ijtimoiy va emotsional intizomni rivojlantiradi.
- Tarbiya fanida bu hadis pedagogik vosita sifatida ishlatilishi mumkin bo‘lib, muloqot madaniyati, hurmat-izzat va ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.
- Hadisiiy yondashuv bolalarga nafaqat salomlashishni, balki kattalarga ehtirom, xalqaro madaniyat va jamiyatga hurmatni singdiradi.

Discussion (Muhokama). Salomlashish odobi faqatgina odatiiy muomala emas, balki axloqiiy muloqotning muqaddimasi, hurmat va kamtarlikning ifodasi sifatida tarbiyaviy ahamiyatga ega. Rasululloh alayhissalom ushbu hadis orqali ijtimoiy tartib va insoniiy qadriyatlarini bolalarga o‘rgatgan. Tarbiya fanida hadisiiy axloqiiy merosdan foydalangan holda pedagoglar va ota-onalar yosh avlodning axloqiiy-kommunikativ madaniyatini shakllantirishi mumkin.

¹⁶³ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Oltin silsila: Sahihul Buxoriy, 7-juz. 7-bob. 6234-hadis. 545-bet. “Hilol nashr”. Toshkent-2020.

Shuningdek, salomlashish odobi bolalarning ijtimoiy moslashuvi va muloqot madaniyatini rivojlantirish, hurmat-izzat tuyg‘ularini mustahkamlash uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Hadisiy merosni pedagogik kontekstda qo‘llash tarbiyaviy jarayonni yanada samarali qiladi va jamiyatda yuksak ma‘naviy muhitni ta‘minlashga yordam beradi.

Conclusion (Xulosa). Natijalar shuni ko‘rsatadiki, hadisiy axloqiy meros tarbiya fanida salomlashish odobi va axloqiy-kommunikativ madaniyatni shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv bolalarda hurmat, kamtarlik, ehtirom va ijtimoiy moslashuv fazilatlarini rivojlantiradi. Shu bois, tarbiyachilar, pedagoglar va ota-onalar uchun hadisiy axloqiy meros pedagogik yo‘l xaritasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Farzand tarbiyasi muqaddas burch va jamiyat taraqqiyoti poydevori hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. 20.01.2021. <https://old.gov.uz/oz>

2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Oltin silsila: Sahihul Buxoriy, 7-juz. 7-bob. 6234-hadis. 545-bet. “Hilol nashr”. Toshkent-2020.

3. Tarbiya fani. Baxt va muvaffaqiyat sirlari. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinf o‘quvchilari uchun darslik. Toshkent «O‘zbekiston» 2020.